

MAKTABGACHA TA'LIMDA O'YIN FAOLIYATI ORQALI BOLALARNING TAFAKKURI RIVOJLANTIRISH VA TEATR VA ROLLI O'YINLARNING TARBIVAVIY AXAMYATI

*Andijon Viloyati Buloqboshi tumani
18 - DMTT Tarbiyachisi
Botirova Marg'ubaxon Anvarbekovna*

ANNOTATSIYA: Maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida o'yin faoliyati orqali bolalarning tafakkuri va do'stona munosabatlarini rivojlantirish usullari va Teatr va rolli o'yinlarning tarbiyaviy axamyati yoritilgan. O'yinning pedagogik ahamiyati, turli o'yin turlari va ular orqali bolalarda kreativ fikrlash, muammolarni hal qilish ko'nikmalari va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish metodikasi tahlil qilinadi. Shuningdek, o'quvchilarda ijtimoiy muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishdagi pedagoglarning roli ham ko'rib chiqilgan.

KALIT SO'ZLAR: Maktabgacha ta'lim, o'yin faoliyati, tafakkur, do'stona munosabatlar, kreativlik, ijtimoiy ko'nikmalar, pedagogik metodlar.

АННОТАЦИЯ: В статье раскрыты методы развития мышления и дружеских отношений детей в дошкольных образовательных учреждениях через игровую деятельность. Анализируется педагогическое значение игры, виды игр и методика формирования у детей креативного мышления, навыков решения проблем и социальных умений. Также рассматривается роль педагогов в развитии у воспитанников навыков социального общения и сотрудничества.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: дошкольное образование, игровая деятельность, мышление, дружеские отношения, креативность, социальные навыки, педагогические методы.

ANNOTATION: The article explores methods for developing children's thinking and friendly relationships in preschool educational institutions through play activities. It analyzes the pedagogical significance of play, various types of games, and the methodology for fostering creative thinking, problem-solving skills, and social competencies in children. The role of educators in enhancing pupils' social communication and cooperation skills is also examined.

KEYWORDS: preschool education, play activity, thinking, friendly relations, creativity, social skills, pedagogical methods.

KIRISH

Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi ularning hayotiy ko'nikmalari, tafakkuri va ijtimoiy munosabatlari bilan bevosita bog'liq. Shu bois, pedagoglar bolalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va do'stona munosabatlarni

shakllantirishda o‘yin faoliyatidan keng foydalanadilar. O‘yin — bu bolalarning ijodiy va ijtimoiy rivojlanishini rag‘batlantiruvchi eng tabiiy vosita hisoblanadi. Maktabgacha yosh — bola shaxsiyati shakllanadigan eng muhim davrdir. Bu davrda teatr va rolli o‘yinlar bolalarning aqliy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishida katta o‘rin tutadi. O‘yin bu yoshdagi bolalar uchun asosiy faoliyat turi hisoblanadi. Pedagog olimlar F. Frobel, L. Vygotskiy va J. Piagetning fikricha, o‘yin bolalarning tafakkurini, muloqot ko‘nikmalarini va jamiyat bilan integratsiyasini rivojlantirishda eng samarali vosita hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Maktabgacha ta‘lim muassasalarida ta‘limiy o‘yinlar va ularning ahamiyati. Ta‘limiy o‘yinlar ta‘limiy o‘yin sifatida bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladigan o‘yinlar sirasiga kiradi. Didaktik o‘yinlarning muhim belgisi undagi qoidalarning mavjudligidir. O‘yinda o‘yin maqsadi, o‘yin qoidalari, o‘yin harakatlari o‘rtasida uzviy aloqa mavjud. O‘yin maqsadi o‘yin harakatlarining tabiatini belgilaydi. O‘yin qoidasi esa, o‘yin harakatlarini, vazifasini hal etishga va o‘yindagi harakatlarni amalga oshirishga yordam beradi. Ta‘limiy o‘yinlar orqali bolalarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi. Bu o‘yinlarda bolaning har tomonlama rivojlanishi, bilim jarayoni, sensor madaniyati, nutq faoliyati, aqliy qobiliyatlari takomillashadi. O‘yin qoidasiga rioya qilish, unga amal qilish o‘yin mazmunini boyitadi. Ta‘limiy o‘yinlarda tabiiy narsa va buyumlardan keng foydalaniladi. Bolaning kun tartibida ta‘limiy o‘yin uchun vaqt va joy ajratilishi kerak. Bunday o‘yinlar mashg‘ulot jarayonida va o‘yindan tashqari vaqtlarda guruh yoki yakka-yakka o‘tkaziladi. Bunda o‘yin mazmuni va natijasi puxta aniqlanadi. Bolalarda do‘stona munosabatni yaxshilash uchun aynan maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ta‘limiy o‘yinlarning ahamiyati katta.

Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi bola shaxsini rivojlantirish orqali ta‘lim maqsadiga erishishni ta‘minlashdan iborat. Pedagogik texnologiyaning tamoyillari quyidagilardir: kafolatlangan yakuniy natija, ta‘limning samaradorligi, qaytuvchan aloqaning mavjudligi, ta‘lim maqsadining aniq shakllanganligi. O‘yin texnologiyasi ham o‘yin metodidan o‘zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo‘lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi va o‘zaro bog‘liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi. L.S. Vigodskiy o‘yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o‘zlashtirish vositasi sifatida ta‘riflaydi.

Har qanday o‘yin muayyan vazifalarni bajaradi:

- maftunkorlik;
- kommunikativlik;
- o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- tashxis;

- o‘yin ishtirokchilari o‘rtasidagi muloqot;
- ijtimoiylashuvlik.

O‘yinli faoliyatni motivatsiyalash o‘yin xarakterining musobaqalashish shartlari, shaxsning o‘zini namoyon qila olishi, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyojlarini qondirishdan kelib chiqadi.

Har qanday texnologiyada, jumladan, o‘yin texnologiyalarida ham, o‘quv maqsadi aniq belgilanishi zarur. Bu texnologiyaning asosiy negizidir. Maqsad to‘g‘ri qo‘yilishi uchun tarbiyachi bolaga nimani o‘rgatmoqchi bo‘lganligini bilishi kerak. Bitta mashg‘ulotda bitta maqsad qo‘yilishi maqsadga muvofiq. Masalan, bolalarni 3 raqami bilan tanishtirish yoki yil fasllari haqida tushuncha berish va h.k. O‘yin texnologiyalari (ayniqsa, bog‘cha bolalari uchun) rivojlantiruvchi maqsadlarni (bolaning idrok, xotira, diqqat, tafakkurini rivojlantirish) amalga oshirishi ham mumkin. Bunda o‘yin jarayonida yakuniy natija muhimroq bo‘ladi. Pedagogik ijrochilik o‘yinlarini bola uch yoshdan boshlab o‘zlashtira boshlaydi. Bog‘chada sahnalashtirilgan ertaklar, kichik spektakllar bolalarga juda kuchli ta‘sir ko‘rsatadi.

1. Nutqni rivojlantiradi

- She‘r va rollarni yod olish orqali so‘z boyligi oshadi.
- To‘g‘ri va ravon gapirish o‘rganiladi.
- Ifodali nutq shakllanadi.

2. Axloqiy tarbiya beradi

- Yaxshi va yomon qahramonlarni ajratishni o‘rganadi.
- Do‘stlik, mehribonlik, yordam berish kabi fazilatlar mustahkamlanadi.
- Ertak qahramonlariga taqlid qilish orqali ijobiy xulq shakllanadi.

3. Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi

- Jamoa bilan ishlashni o‘rganadi.
- Navbat kutish va boshqalarni tinglash malakasi paydo bo‘ladi.
- O‘ziga ishonch ortadi.

Rolli o‘yinlarning ahamiyati

Rolli o‘yinlarda bolalar kattalar hayotini aks ettiradi: “shifokor”, “o‘qituvchi”, “oshpaz”, “haydovchi” kabi rollarni bajaradi.

1. Tafakkur va tasavvur rivojlanadi

- Bola mustaqil syujet tuzadi.
- Voqealarni tasavvur qiladi.
- Muammoli vaziyatlarda yechim topishga harakat qiladi.

2. Hissiy rivojlanish

- O‘z his-tuyg‘ularini ifoda etishni o‘rganadi.
- Boshqalarga hamdard bo‘lishni o‘rganadi.
- Ijobiy kayfiyat shakllanadi.

3. Mustaqillik va mas‘uliyat

- O‘z rolini oxirigacha bajarishga harakat qiladi.
- Qoidalarga rioya qilishni o‘rganadi.
- Mas’uliyat hissi paydo bo‘ladi.

Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish

Bu markaz o‘z ichiga guruhimizda yillar davomida ishlab kelgan "Mehmon - mehmon", "Oila", "Shifoxona", "Maktab", "Atele", "Sartaroshxona", "Oshxona", "Do‘kon" o‘yinlarini olgan bo‘lib, markaz deyarli har kuni ishlaydi. Bolalarga o‘yin mavzusini tushuntiring, jihozlarni ta‘minlab qo‘ying va o‘zingiz chetdan kuzating. Ular sizga shunday o‘ynab berishadi, ko‘rib hayratlanasiz. Chunki bola ota-onasi bilan shifoxonaga, do‘konga, mehmonga, sartarashxonaga borayapti. U yerdagi kattalar muloqotini eshitayapti. Muomala madaniyatidan andoza olayapti. Ko‘rganlari asosida sizga rol o‘ynab berayapti. Demak ushbu markaz biz va ota-onalar uchun ko‘zgu vazifasini bajaradi. Bolalardagi noto‘g‘ri tushunchalarni ertalabki va kechki soatlarda, pedagogik jarayonlarda to‘g‘irlab ketish lozim. Markazda joylashtirilgan o‘yinlar iloji boricha bir-birini to‘ldirishga harakat qilishi lozim. Ya‘ni "Mehmon-mehmon" o‘yini oldida albatta "Oshxona" bo‘lishi, ovqat tayyorlash uchun kerakli mahsulotlarni olib kelish uchun "Do‘kon" o‘yini, mehmonga borish uchun kiyim kerak "Atele" o‘yini, soch turmaklash uchun "Sartaroshxona" o‘yini o‘z -o‘zidan bolalar tomonidan qo‘shib ketiladi. Shuning uchun ham bu markazga bolalar ko‘proq intilishadi. Markaz bolaga nima beradi? Eng avvalo bolaning nutqi rivojlanadi, kattalar bilan muloqot qilishni o‘rganadi, qarindosh- urug‘chilikni tushunadi. Mehmondo‘stlik va mehmonda bo‘lish odobi tarbiyalanadi, kattalar mehnati bilan tanishadi, kasblarga qiziqish uyg‘onadi. Ma‘lum bir kasbni tanlashning ilk bosqichlari boshlanadi. Bolaning tasavvuri kengayadi. O‘rtoqlaridan bilmaganlarini o‘rganadi, pul bilan muomala qilishning dastlabki bosqichlarini bajaradi. Oilasi, oiladagi yaxshi va yomon odatlar haqidagi ma‘lumotlar bola tomonidan o‘zi bilmagan holda beriladi. Tarbiyachi tomonidan kuzatilgan holatlar yuzasidan ota-onalar bilan hamkorlik boshlanadi. Pedagogik tavsiyalar beriladi. Bolalar bilan yakka ishlash rejaları tuziladi. Drammalashtirish borasida teatr turlariga murojaat qilamiz. Soya teatri, barmoq teatri, qo‘g‘irchoq teatri, stol teatrlari bo‘yicha pedagoglarimiz tushunchalarga ega. Va yana biri bu bolalar tomonidan badiiy asarlarni sahnalashtirishdir. Asar bolalarga yaxshi tanish bo‘lsa uni albatta sahnalashtirishga qiynalmaydilar. Buning uchun kostyumlar, dekoratsiyalar, jihozlar bo‘lishi shart.

1. Markazdan o‘rin olgan o‘yinlar uchun joy ajratish.
2. Mavzusi jihatidan mos bo‘lgan o‘yinlarni yonma yon qo‘yish.
3. O‘yinlar uchun tanlangan jihozlar bolalar yoshiga mos bo‘lishi
4. Jihozlarning havsizligi ta‘minlangan bo‘lishi.
5. O‘yinlarning mavzusini markazga qo‘yilgan talabdan kelib chiqib o‘zgartirish.

Masalan "Do‘kon" o‘yini dasturga olingan barcha mavzular uchun mos keladi. "Kuz" mavzusida sabzavot va mevalar do‘koni, "O‘yinchoqlar" mavzusida o‘yinchoqlar do‘koni va hakazo davom etadi. Demak ushbu o‘yinning jihozlari turlicha bo‘ladi.

6. Markazga kirishdan oldin bolalarga o‘yinning maqsadi va mazmunini tushuntirish yoki eslatish.

7. O‘yin davomida havfsizlik qoidalariga rioya qilish.

1. O‘yin faoliyatining pedagogik ahamiyati

O‘yin — bolalarning tafakkuri, kreativligi va fantaziyasini rivojlantiradi

Ijtimoiy muloqot va hamkorlikni mustahkamlaydi.

Muammoni hal qilish, qaror qabul qilish va muloqot ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Emotsional rivojlanishni rag‘batlantiradi va bolalarda do‘stona munosabatlarni mustahkamlaydi.

2. O‘yin turlari va ularning pedagogik qo‘llanilishi

a) Rol o‘yinlari

Bolalar turli kasblar, oilaviy vaziyatlar yoki ijtimoiy rollarni o‘zlashtiradilar.

Misol: "Doktor va bemor", "Oila a‘zolari" o‘yinlari orqali hamkorlik va do‘stona munosabatlar shakllanadi.

b) Qurilish va konstruksiya o‘yinlar

Tafakkur va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

Bolalar muammolarni yechish va jamoada ishlash ko‘nikmalarini egallaydi.

c) Stol o‘yinlari va logik o‘yinlar

Masalan: domino, shaxmat, jumboqlar orqali mantiqiy tafakkur, strategik fikrlash va sabr-toqat rivojlantiriladi.

d) Harakatli va sport o‘yinlari

Jamoaviy o‘yinlar: "Tog‘ga chiqish", "Topni olib kelish".

Hamkorlik, me‘yoriyat va bir-birini tushunish ko‘nikmalari shakllanadi.

e) Kreativ va tasviriy o‘yinlar

Rangli qog‘ozlar, loy, lego va boshqa materiallar bilan ijodiy ishlash.

Bolalarda muammolarni hal qilish va innovatsion fikrlash rivojlanadi.

3. Pedagogning roli

O‘yin jarayonini boshqaradi, yo‘naltiradi va motivatsiya qiladi

Bolalar orasida ijobiy muloqot va do‘stona munosabatlarni rag‘batlantiradi.

Konflikt vaziyatlarida vositachilik qiladi va muloqot madaniyatini shakllantiradi.

Individual va guruh ishlari orqali har bir bolaning qobiliyatini rivojlantiradi.


4. O‘yin faoliyati orqali ijtimoiy va tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirish usullar
Jamoaviy vazifalar berish va bolalarni bir guruhga birlashtirish.

Muammoli vaziyatlar yaratib, bolalarning yechim topish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Roli va qoidalari aniq o'yinlar orqali do'stona muloqotni mustahkamlash.

Baholash va rag'batlantirish orqali bolalarda mas'uliyat va hamkorlik hissini oshirish.

- Taniqli pedagog-olimlarning olib borgan tadqiqotlari o'yinga kompleks rahbarlik qilish orqali bolalarga o'yinning mazmuni, tashkil etilishi, tuzilishi, bolalarning axloqiy munosabatlari, bolalar o'yinining rivojlanish darajasiga ta'sir etish mumkinligini ko'rsatdi. Bolalar o'yini uning mazmuni, xususiyati, tashkil etilishiga ko'ra xilma- xildir.



Ijodiy o'yinlarni bolalar o'zlari o'ylab topishadi. Unda oldindan belgilangan qoidalar bo'lmaydi. O'yin qoidasini bolalar o'zlari o'yin jarayonida belgilashadi. Qoidali o'yinlarning mazmuni va qoidasi kattalar tomonidan belgilanadi. Qoidali o'yinlarga quyidagilar kiradi: didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar, musiqaviy o'yinlar, ermak o'yinlar. Bolalarga ta'lim-tarbiya berish maqsadida kattalarning o'yinni tanlay bilishi, unga to'g'ri rahbarlik qilish "MTT ta'lim va tarbiya dasturida belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlaydi. O'yin bolalarni rivojlantirish va tarbiyalash vositasidir. Psixologlar o'yinni maktabgacha yosh davrida yetakchi faoliyat deb hisoblaydilar. O'yin tufayli bolaning yuqori rivojlanish bosqichiga o'tishini ta'minlovchi sifatlar shakllanadi, ruhiyatida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi. O'yinda bola shaxsining hamma tomoni bir-biriga o'zaro ta'sir etgan holda shakllanadi. O'ynayotgan bolani kuzatayotib uning qiziqishlarini, tevarak-atrof to'g'risidagi tasavvurini, kattalarga va o'rtoqlariga bo'lgan munosabatini bilib olish mumkin. Shaxsdagi biron sifatni tarbiyalash uchun uning boshqa tomonlarini ham rivojlantirish kerak. Masalan, bolaning o'yiniga qiziqishini, tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantirish O'yin faoliyati maktabgacha ta'limda bolalarning tafakkuri va do'stona munosabatlarini rivojlantirishda eng samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Turli o'yin turlari orqali bolalar ijodiy fikrlash, muloqot ko'nikmalari, muammoni hal qilish va ijtimoiy hamkorlik qobiliyatini egallaydi. Pedagogning vazifasi o'yinni to'g'ri

yo‘naltirish, bolalarni rag‘batlantirish va do‘stona muhit yaratishdir. Shu tariqa o‘yin faoliyati bolalarda nafaqat intellektual, balki ijtimoiy va emotsional rivojlanishni ham mustahkamlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Vygotskiy, L. S. Bolalarning psixologik rivojlanishi. – Moskva, 2001.
2. Frobel, F. O‘yin va tarbiya. – Berlin, 2010.
3. Piaget, J. Bolalarning aqliy rivojlanishi. – Parij, 2012.
4. Yusupov, M. Maktabgacha ta‘lim pedagogikasi. – Toshkent, 2020.
5. Karimova, D. O‘yin orqali tafakkur va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish. – Toshkent, 2021.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Maktabgacha ta‘lim to‘g‘risidagi Nizomi, 2022.